

ORCID. 0000-0001-6555-8804

IQTISODIYOT VA BIZNES SOHASIDAGI TA'LIM YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Shahriddin G'ANIYEV,

ISFT dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Abstract:

the article analyzes the current state of improving the quality of personnel training in terms of the educational potential of economy and business. Consistent measures have been researched to raise the private and public higher education system in our republic to a new level, to improve it based on international standards, and to increase the coverage level of higher education. Methods of digitalization of the process between economy and business are proposed.

Keywords:

economics, business, technology, dealership, real sector, global, innovation, index, rating, rule, skills, bilim.

Аннотация:

в статье проанализированы современное состояние повышения качества подготовки кадров с точки зрения образовательного потенциала экономики и бизнеса. Проработаны последовательные меры по поднятию системы частного и государственного высшего образования в нашей республике на новый уровень, ее совершенствованию на основе международных стандартов, повышению уровня охвата высшим образованием. Предложены методы цифровизации процесса между экономикой и бизнесом.

Ключевые слова:

экономика, бизнес, технология, коммерциализация, реальный сектор, глобальность, инновация, индекс, рейтинг, правило, квалификация, знание.

Annotatsiya:

maqolada iqtisodiyot va biznesning ta'limdagi salohiyati bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashning amaldagi holati tahlil qilingan. Respublikamizdagi xususiy va davlat oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar tadqiq etilgan. Iqtisodiyot va biznes o'rtasidagi jarayonni raqamlashtirish usullari taklif etilgan.

Kalit so'zlar:

iqtisodiyot, biznes, texnologiya, tijoratlashtirish, real sektor, globallik, innovatsiya, indeks, reyting, qoida, malaka, bilim.

Kirish

Mustaqil Respublikamiz dunyo miqyosida tanilib borayotgan kelajagi porloq davlatlar tarkibida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi". Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak [2].

O'zbekiston Respublikasi barcha sohalarda, misol uchun oliy ta'lim tizimida ham, mamlakatning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor qurish va rivojlangan mamlakatlarga qatoriga erishish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmogda. Yoshlarning bilimli va barkamol bo'lib yetishishi, ularga berilayotgan imkoniyatlarning dunyo bo'ylab keng qamrovli bo'lishini ta'minlash maqsadida xususiy hamda davlat ta'lim tizimiga yangi ta'lim texnologiyalari, xorij tajribalari joriy etilmogda va mos tarzda o'zgarishlar amalga oshirib kelinmogda. Jumladan, 1999-yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan, ayni paytda dunyoning 49 ta mamlakati ishtirokchisiga aylangan Bolonya deklaratsiyasi [9]. O'zbekistonning qo'shilishi va ta'lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish borasidagi ishlarning boshlab yuborilishi mamlakat oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'zgarishlar davrini boshlab berdi [10].

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyot va biznesning ta'limdagi salohiyati bo'yicha kadrlar tayyorlash "Kredit va modul" tushunchalariga O'zbekiston olimlari B.Sh.Usmonov va R.A.Xabibullayevlar [10] tomonidan berilgan ta'riflarga ko'ra, kredit-modul tushunchasi ikki so'zdan iborat: "kredit" va "modul".

Oliy ta'lim sohasida kredit ko'pchilikka bank va moliya sohasi orqali tanish bo'lgan qarzdorlik yoki moliyaviy majburiyat tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun oliy ta'lim sohasida "kredit" so'zi ko'pincha "akademik" so'zi bilan birga ishlatiladi.

Akademik kredit – oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'l-

chov birligidir. Bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi.

Modul

ECTS tizimida o'quv dasturi bir necha modullardan tashkil topadi. Talaba kreditlarni faqat modullar orqali qo'lga kiritishi mumkin. Xo'sh, ECTS tizimida modul nimani anglatadi?

Akademik modul – yaxlit, muayyan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan, o'zining baholash mezonlariga ega bo'lgan tizimli, izchil o'qish va o'rganish harakatlari majmuyidir. U odatda bir semestr davom etadi, lekin ayrim hollarda bir necha soatdan iborat bo'lishi ham mumkin. ECTS tizimida har bir modul o'zida muayyan miqdordagi kreditlarni aks ettirish ta'riflari taklif etilgan [11] bo'lsa, jahon ta'lim sohasidagi yo'nalishlarni hisobga olib, xorijiy kredit tizimlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz bilamizki, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni hamda 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 133-F-sonli farmoyishi bugungi oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tartibni yanada takomillashtirish, yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini amalga oshirish, ishni boshlayotgan mutaxassislariga bilimlarini oshirishlarida o'rnak bo'lishni talab etadi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mutanosib ravishda tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan yangi qaror, farmoyishlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-aprel kuni joriy o'quv yilini sifatli yakunlash, bitiruv va kirish imtihonlarini tashkil etish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishida vaziyatga qarab, o'quv yuklamalarini va dasturlarni qayta ko'rib chiqish, oliy o'quv yurtlarida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi, shuningdek, zerikarli ma'ruzalar o'qish, konspektlar yozdirish kabi o'zini oqlamagan usullardan voz kechib, ta'lim metodikasini rivojlantirish va pedagoglar saviyasini oshirish g'oyat muhim masala ekanligini ta'kidladi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu, shubhasiz, ta'lim tizimini isloh qilish, milliy va xalqaro mehnat bozori talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish orqali ta'lim sohasini yanada takomillashtirish borasida tizimli tadbirlar belgilab berilgan [2]. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berish borasida o'tkazilgan tahlil natijalari, avvalo, ta'lim sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, sohada ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda. O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yangi, jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoridagi ta'lim yo'nalishi 329 taga, magistratura mutaxassisliklari 582 taga yetkazildi, 2019/2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi uch yilda 1,7 baravarga oshdi.

O'zbekiston jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ilm-fanga asoslangan innovatsion rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingiga ko'ra dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari tarkibiga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli me'yoriy-huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi va buni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori, 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonlari oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, tizim tomonidan uning ijrosi muvaffaqiyatli ta'minlab borilmoqda. Ma'lumki, O'zbekistonning ilm-fan sektori 104 tadan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalaridan iborat, shu jumladan, 65 ta ilmiy tadqiqot instituti, 31 ta ilmiy markaz va 8 ta boshqa ilmiy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari 100 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida ham ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda [8]. Biroq uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan tahlillar ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida ma'lum kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyatini hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariidan kelib chiqib tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirish borasida uchrayotgan kamchiliklar shular jumlasidan. Birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" [2].

Oliy ta'lim muassasalarida asosiy vazifa kasbiy yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda standartlarga kiritish uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy malakalari va alohida kompetensiyalarini ishlab chiqish hamda malaka talablari va o'quv dasturlari bilan bog'lash hisoblanadi. Bilimlarning yangi iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lishi uchun mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarning ulushini oshirish kerak.

51-moddaga ko'ra "Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega" [1].

Oliy ta'lim muassasalarida diplom olgan, haqiqiy bilim va kompetensiyalarga, ularni to'g'ri qo'llash malakalariga ega, analitik, ijodiy ish bilan shug'ullanuvchi, qarorlarni mustaqil qabul qiluvchi mutaxassislar mavjud, bular rahbar kadrlar, shifokorlar, muhandislar, analitiklar va boshqalardir. Mehnat bozori va inson kapitalini o'rganish natijalariga ko'ra mamlakat uchun global iqtisodiyotda raqobatni saqlab qolishning yagona imkoniyati il-

garilovchi modernizatsiyani amalga oshirish, mehnat bozorini sifatli o'zgartirish va yuqori malakali professionallarning ulushini oshirish hisoblanadi. Daniyalik tadqiqotchi Yens Rasmussenning tizimi barcha ishchilarni uchta: "Qoida", "Malaka" va "Bilim" toifalariga taqsimlashga asoslangan edi [8]. "Qoida" toifasiga mazkur tizimda jismoniy mehnat bilan band bo'lgan va ish vaqtining aksariyat qismida namunaviy vazifalarni takrorlovchi insonlar kiritiladi [8]. "Malaka" toifasiga doimiy texnik ishlar bilan band bo'lgan, qoidalar doirasida qaror qabul qiladigan insonlar taalluqli (ustadan mehmonxona boshqaruvchisigacha, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan ko'pchilik iqtisodchilar va yuristlar). Nihoyat, "Bilim" toifasi ishlarining aksariyat qismi analitik, ijodiy vazifalar, improvizatsiyalardan tashkil topgan va mustaqil qaror qabul qilishni nazarda tutuvchi insonlardir [8]. Bugun xorijda ishlaydigan aholining faqat 17 foizi "Bilim" toifasiga kiradi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz zaxiralar iqtisodiyoti va bilimlar iqtisodiyoti o'rtasidagi o'tish bosqichida hisoblanadi. Bilimlar iqtisodiyoti Yaponiya, AQSh, Germaniya, Singapur kabi ilg'or mamlakatlarga taalluqlidir. Ular uchun daromadning yuqori darajasi, rivojlangan raqamli iqtisodiyot, insoniyat taraqqiyotining yuqori indeksi xos, "Bilim" toifasidagi insonlar zaxirasi 25 foizdan ortiq hisoblanadi (bu mamlakat raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi). Nima sababdan "Bilim" toifasidagi inson zaxiralari yetishmaydi? Buning sababi o'tgan asrning 90-yillarida bo'lganidek, chuqur bilimli insonlarning emigratsiyasi hisoblanmaydi. Sababi: insonlar oliy ta'lim muassasalarida egallaydigan ko'nikmalar va iqtisodiyotning haqiqiy ehtiyojlari o'rtasidagi uzilishlar hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga asosan ishlashga qobiliyatli aholining 80 foizi zamonaviy mehnat bozorlarida ishlashga tayyor emas. Bunda ta'lim tizimining hamda ish haqi, shaxs sifatleri prinsiplari ham sababchi hisoblanadi. Yangi raqobatbardoshligini o'z ichiga nafaqat ta'lim va kadrlar tayyorlash masalalarini, balki "Bilim" toifasiga kiruvchi kadrlarga talabni oshirish hamda inson rivojlanishi uchun farovon muhitni yaratish masalalarini kiritgan, inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish qobiliyati tashkil etadi [8].

Tadqiqotchilar inson kapitali rivojlanishining sakkizta asosiy qadamlarini ajratganlar. Ular orasida: ish beruvchilar davlat ishtiroki bilan "Bilim" toifasidagi professionallar uchun raqobatbardosh mehnat sharoitlarini yaratishlari kerak; "Bilim" toifasidagi ishchilarning foydasi uchun mehnatga haq to'lash fondini qayta taqsimlash bilan samarasiz "ijtimoiy bandlik"ni qisqartirish zarur va shu bilan birga, boshqa toifalardan ozod etilgan kadrlarni qayta tayyorlash tizimini joriy etish; biznes yuritish uchun qulay sharoitlarni yaratish, jumladan, innovatsion kichik korxonalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash; ta'lim tizimi "Bilim" toifasidagi ishchilarni jadal sur'atlarda tayyorlashi uchun qayta tuzilishi kerak [8]. Ta'lim dasturlarining diqqat markaziga esa fanga oid bilimlarni rivojlantirish va ma'lumotni eslab qolishdan shaxsiy va metafanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga ko'chirish kerak; ta'lim sohasida iqtidorlarni jalb etishni qo'llab-quvvatlash kerak; korxonalar va ishchilarni kasbiy rivojlanish va ta'lim diplom olgandan so'ng yakunlanmasligi, balki butun

hayot davomida davom etishi kerakligiga yo'naltirish kerak. Kasbiy o'sish va yangi bilimlarni egallashni rag'batlantirish tizimi yaratilishi kerak. Ta'lim sohasi XXI asrda davlatlarning iqtisodiy kuch va siyosiy ta'sir uchun global raqobatining asosiy va eng istiqbolli maydonidan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu sohada erishgan ahamiyatli yutuqlarga qaramay, global raqobat davlat oldiga ta'lim sohasida mutlaq aniq (va ko'pincha yangi) vazifalarni qo'yadi, jahon hamjamiyatining to'laqonli, mustaqil va hurmatga sazovor ishtirokchisi bo'lib qolishi uchun ularni hal etish zarurdir. Prezidentimiz tomonidan raqamli iqtisodiyot deb nomlangan yangi texnologik avlod iqtisodiyotini rivojlantirishning keng miqyosli tizimli dasturini amalga oshirish vazifasi qo'yilgan. Mazkur ulkan vazifani hal etish uchun malakali kadrlar zarurdir. Insonning raqamli muhitdagi quyidagi roli, vazifalari va kompetensiyalari ahamiyatli hisoblanadi. Raqamli iqtisodning imkoniyatlari va cheklanishlariga moslashgan, uning foydasidan kundalik foydalanadigan va kelajakning raqamli shokdan minimal noqulaylik his etadigan, yangi sharoitlarga doimiy moslashadigan, butun hayoti davomida ta'lim oluvchi, salomatligida imkoniyati cheklangan raqamli texnologiyalar bilan o'zni to'ldiriladigan biologik-psixologik-ijtimoiy shaxsdir.

Xulosa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda ta'lim tizimi bilan iqtisodiyot va biznes o'rtasidagi jarayonni raqamlashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- qiziquvchilarning raqamli iqtisodiyot va biznes bo'yicha bilim darajasini oshirish;
- qiziquvchilarning barcha qatlamlarida raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish;
- ta'limning ko'p qirrali tizimiga o'tish, har xil ta'limiy kurslar vositasida qiziquvchilarning raqamli iqtisodiyot va biznes bo'yicha bilimlarini oshirish;
- qiziquvchilar va talabalarga o'qituvchilar tomonidan masofadan turib ta'lim berish tizimini yo'lga qo'yish;
- qiziquvchilarga elektron darsliklarga asoslangan maxsus interfaol dasturlardan foydalanib ta'lim berishni olib borish;
- qiziquvchilarga barcha ochiq onlayn o'rgatuvchi kurslarni tashkil etish va uning unumdorligini oshirish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Kuchga kirish sanasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022 yil.

3. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.02.2023-yildagi PF-27-son.
4. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 17.01.2019-yildagi PF-5635-son. Kuchga kirish sanasi 18.01.2019
5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 08.10.2019-yildagi PF-5847-son. Kuchga kirish sanasi 09.10.2019.
6. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 05.06.2018-yildagi PQ-3775-son. Kuchga kirish sanasi 06.06.2018
7. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 11.07.2019-yildagi PQ-4391-son.
8. "Oliy ta'lim: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, ilmiy maqola va tezislari to'plami. 2020-yil 25-may. –310 b.
9. Болонская декларация "О Европейском регионе высшего образования". г.Болонья, Италия. 1999.
10. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. – Toshkent, 2020.
11. Mustafaqulov Sh., Sultonov M. Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik. [http:// xs.uz/uzkr/post/ kredit-modul-tizimiga-otish-n-imauchun-kerak-maqsad-mohiyat-va-afzallik](http://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-n-imauchun-kerak-maqsad-mohiyat-va-afzallik).